

MAKTABGACHA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

Nazarova Sevara Asatillo Qizi

Guliston tumani 1- son davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyachisi

Annotatsiya: maqolada chet el ta'lism tizimidan na'muna olgan holda maktabgacha ta'lism tizimini yanada mukammal va sifatli tashkil etish haqida ma'lumotlar berilgan. Buning uchun ilg'or mamlakatlar tajribalaridan foydalanish, ta'lism tashkilotlarini innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash, bolalarga maktabgacha yoshdan boshlab innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'rnatishimiz va ularni mustaqil, o'ziga ishonadigan shaxs qilib tarbiyalashimiz kerak. Shundagina bizning mamlakatimizdan ham jahonga mashhur buyuk shaxslar, İbn Sino, al-Beruniy, al-Xorazmiy ajdodlarimizga mod avlodlarni yetishtiramiz.

Kalit so'zlari: ilg'or mamlakatlar, innovatsion texnologiyalar, ta'lism tizimi, maktabgacha ta'lism, Janubiy Koreya.

Abstract: the article provides information on the more perfect and high-quality organization of the preschool education system, taking an example from the foreign education system. For this, we need to use the experiences of advanced countries, provide educational organizations with innovative technologies, teach children to use innovative technologies from preschool age, and raise them to be independent, self-reliant individuals. Only then, world-famous great people from our country, Ibn Sina, al-Beruni and Al-Khorazmi ancestors We are raising descendants of our.

Key words: advanced countries, innovative technologies, education system, preschool education, South Korea

Bugun mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yuksaltirish, respublikamizdagi bog'chalarining moddiy- texnik bazasini mustaxkamkash, ularni mohir tarbiyachi va pedagoglar bilan ta'minlash va bolalarni maktabga sifatli tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yurtimizda har bir bolani maktabgacha ta'lim va tarbiya olish huquqini ta'minlash, ularni bu yo'nalishga to'liq qamrab olish, bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish va rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan sheriklik mexanizmlarini joriy etish masalalarida turli islohotlar amalga oshirilyapti. Bu borada ham qator qonun hujjatlari qabul qilingan.

Hozirgi kunda yurtimizda juda ko'p sohalarda keng qamrovli islohatlar, yangilanish va rivojlanish, takomillashish amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunning asosiy e'tibori ta'lim tizimiga qaratilgan. Jamiyatmiz rivoji taraqqiyoti uchun har tomonlama yetuk, bilimli yoshlarni tarbiyalashda boshlang'ich bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasida juda ko'plab o'zgarishlar va yangiliklar yaratilmoqda.

Ta'lim sifati samaradorligini oshirish uchun nafaqat milliy qadriyatlardan balki ilg'or mamlakatlar tajribasidan ham foydalanish ko'zlangan maqsadlarga yetishishda ko'maklashuvchi bir vositadir. Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali degan tushuncha mavjud. Bu tushuncha asosida shaxs takomillashishida uning rivojlanishida unga tikilgan sarmoya nazarda tutiladi. Ta'limga kiritilgan sarmoya esa kelajak garovidir.

Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, agarda 2 – 7 yoshdagi bolaga eng kamida bir yil davomida haftasiga 9 soatdan 15 soatgacha ta'lim berilsa, uning salohiyati 100 foiz rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinish turibdiki rivojlangan mamlakatlarda ta'limga bo'lgan e'tibor asosiy o'rnlarda turadi. Masalan, Janubiy Koreyaning o'rtacha daromadli oilasi har oylik harajatlarining 56% dan ortig'ini bolalarning tarbiyasi, ta'lim va parvarish uchun sarflaydi.

Janubiy koreyalikalarning ta'limga bo'lgan harajatlari dunyodagi eng yuqori ko'rsatgichlaridan bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotning 7%ini tashkil etadi.

Jahon tajribasini maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida qo'llash borasida gap ketganda Janubiy Koreya, Germaniya, Fransiya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya va shu kabi bir qancha rivojlangan mamlakatlar nomini keltirib o'tish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda ta'lim yo'nalishida eskicha, qotib qolgan qoliplardan voz kechgan holda, yangi tamoillardan foydalanish, milliy qadriyatlarimizga uyg'un holda dunyo mamlakatlarining ilg'or tajribalaridan andoza olish va maktabgacha ta'lim tizimi sohasini isloh qilishga e'tibor qaratilganligi yoshlarimizning barkamol bo'lib shakllanishiga zamin yaratmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini reytinglash tizimini joriy etish orqali mamlakatimizda mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida raqabatni kuchaytirish, ular faoliyatini yanada yaxshilash hamda ular ustidan nazoratning yanada oshirilishi kabi natijalarga erishish mumkin. Nima bo'lganda ham, qaysi davlat ilg'or tajribasidan foydalanmaylik, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish masalasi bolalarni tarbiyalashda, ularni mакtabga tayyorlashda va Vatanimiz ravnaqi uchun hizmat qiladigan bo'lajak kadrlar tayyorlashda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Usmonxon Alimov. Oilada bola tarbiyasi. "Movarounnahr" nashriyoti. 2014
2. Alisher Bolibekov, Maftuna Yo'ldosheva. Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim-tarbiya. "Guliston davlat universiteti". 2019
3. Yo'ldoshev J.F Xorijda ta'lim.Toshkent 1995-yil.